



XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 28-yanvar

VII-17-4-12-0-K/26

Xorazm viloyati

Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2026-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qarori, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xorazm viloyati hokimining o‘rinbosari A.Davletovning 2025-yil 19-dekabrda 10-5244-sonli xati hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqamasining 2025-yil 18-dekabrda 02-04-33-32/1175-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Xorazm viloyatida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2026-yilda 1 kv.metr uchun QQS hisobga olingan holda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga;

Ijara to‘lovini (ijara to‘lovining eng kam miqdori) hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga;

Radio, uyali va peyjing aloqa antennalari (texnik uskunalari) o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi 3-ilovaga;

Moddiy-madaniy meros obyektlari bo‘lgan bino va inshootlarda mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil qilishda ijara to‘lovi (ijara to‘lovining eng kam miqdori)ni hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

Ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni hisoblash tartibi 5-ilovaga;

Viloyat shahar (tuman)larining markaziy va serqatnov ko‘chalari ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (U.Kalandarov):

ijara to‘lovi qiymatini belgilashda 1-ilovada ko‘rsatilgan ko‘chmas mulk uchun qo‘llaniladigan eng kam stavkalardan eng kam miqdor sifatida foydalansin. Bunda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan budget tashkilotlari uchun ijara to‘lovi nol stavkada qo‘llansin;

viloyat hududidagi madaniy meros obyektlari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrdagi 881-sonli qarori talablari asosida ijaraga berilishini ta’minlasin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari joriy yilning har choragida kamida bir marta o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazgan holda foydalanilmayotgan davlat mulki, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning “tiklanish qiymati” to‘g‘risidagi ma’lumotlar Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida to‘liq va ishonchli taqdim etilishi uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

4. Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi (O‘.Matqurbanov) hamda “Xorazm haqiqati” gazetasi tahririyati (S.Raximberganova) ushbu qarorni rasman e’lon qilsin.

5. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**RADJABOV
ALTIBAY
BEGJANOVICH**

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatida davlat ko'chmas mulkidan foydalanish uchun 2026-yilda 1 kv.metr uchun QQS hisobga olingan holda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)

T/r.	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1-yanvardan 1 kv.metr maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari	
		Viloyat markazi Urganch shahri	Shahar va tumanlar
Ishlab chiqarish			
1.	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari, chiqindini qayta ishlash)	17 700	12 500
2.	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	56 000	40 600
3.	Elektr energiya ishlab chiqarish	17 700	12 500
Qurilish sanoati			
4.	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	17 700	12 500
5.	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	58 800	38 100
6.	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	93 300	53 300
Yengil sanoat			
7.	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, selluloza-qog'oz sanoati)	17 700	12 500
Oziq-ovqat sanoati			
8.	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	17 700	12 500
9.	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan qushxona)	50 000	35 950
10.	Sut mahsulotlari sanoati	34 500	24 900
11.	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	50 500	31 500
Qishloq xo'jaligi			
12.	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	7 110 000	5 090 000
13.	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	17 800 000	12 280 000
14.	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 500	6 180
15.	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	16 220 000	10 800 000
16.	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 650 000	3 330 000
Transport va aloqa			
17.	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	17 700	12 500
18.	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	9 100	4 495

19.	Avtomobillarni yuvish	57 000	35 850
20.	Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	62 500	46 550
21.	Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	69 500	50 300
22.	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	30 300	22 000
23.	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	57 000	40 700
24.	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	43 500	31 450
25.	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	32 000	23 100
26.	Pochta va kuryerlik aloqasi	39 500	28 600
27.	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	36 000	25 650
28.	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	150 100	107 600
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29.	Ulgurji savdo	50 000	35 950
30.	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	128 000	91 500
31.	Chakana savdo	50 000	35 950
32.	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish (va h.k.)	121 000	99 000
33.	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	50 000	35 950
34.	Kitob do'konlari	6 930	5 170
35.	Lombardlar	64 500	46 150
Xizmat ko'rsatish			
36.	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	50 000	35 950
37.	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	75 000	53 850
38.	Mehmonxona xo'jaligi	57 000	40 700
39.	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	45 000	31 550
40.	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	28 800	20 500
41.	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	17 700	12 500
42.	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	39 500	28 600
43.	Poligrafiya sanoati	43 500	35 970
44.	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	39 500	28 600
45.	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalar, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	35 600	25 350
46.	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 500	6 180
47.	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	42 900	31 100
48.	Hammomlar	85 800	61 300
49.	Saunalar va basseynlar	171 500	122 900
Turizm xizmatlari			
50.	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k)	53 000	41 480
51.	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari	42 050	30 500

	yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k)		
52.	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	99 800	77 800
53.	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	77 900	55 900
54.	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fast-fud va h.k)	88 800	63 450
55.	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	57 400	40 950
Sog'liqni saqlash			
56.	Davolash maskani (statsionar davolash)**	35 530	25 300
57.	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stomatologiya, fizioterapiya)**	110 000	87 900
58.	Tibbiy asbob-uskunalar o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	136 000	113 900
59.	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob-uskunalar va dori vositalari ishlab chiqarish)	137 100	115 000
60.	Fitobar	24 600	17 650
61.	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	60 000	32 200
62.	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	35 600	25 350
63.	Ijtimoiy-dorixonalar	25 300	16 500
Jismoniy tarbiya va sport			
64.	Sport maydonlari (stadionlar)	32 230	26 730
65.	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	17 700	12 500
66.	Fitness va yengil atletika zallari	140 800	118 800
Ta'lim			
67.	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	35 600	25 350
68.	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repetitorlik)	59 000	42 720
69.	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	35 000	25 220
70.	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	26 300	18 820
71.	Madaniyat va san'at	49 720	35 750
72.	Ko'rgazmalar	38 500	28 800
73.	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	35 800	25 480
74.	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	57 000	40 700
75.	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	21 600	15 210
76.	Avtomaktablar	31 800	18 200
77.	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	17 700	12 500
Moliya-kredit faoliyati			
78.	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	49 800	35 800
79.	Auditorlik faoliyati	49 800	33 500
80.	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	77 900	55 900
81.	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	49 800	35 800

82.	Bankomatlar	711 700	509 630
83.	Paynetlar (to'lovlarni amalga oshirishning avtomatlashtirilgan usuli-to'lov kiosklari)	142 670	102 025
84.	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	142 670	102 025
85.	Front-ofislar (Banklar uchun)	60 720	49 720
86.	Bank xizmatlari ofisi	49 720	35 750
87.	Sug'urta faoliyati	42 790	35 750
88.	Aviakassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	77 880	55 880
Faoliyatning boshqa turlari			
89.	Notarial xizmatlar	49 720	35 750
90.	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	42 790	31 020
91.	Jamoat birlashmalari	14 355	10 010
92.	Omborxonalar	50 000	35 950
93.	Davlat korxonasi va muassasalari	21 560	15 180
94.	Xususiy tashkilotlarga ofis	77 880	55 880
95.	Arxiv xizmati	21 560	12 705
96.	Tahririyat va nashriyotlar	28 600	20 350
97.	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	28 600	20 350
98.	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	35 530	25 300

Izoh:

Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentabrdagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 441-son qaroriga ham tatbiq etiladi.

** O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 1-apreldagi PQ-2863-sonli qarori hamda Davaktiv agentligining 2023-yil 3-dekabrda 03/25-18/5971-sonli xatiga asosan ijara stavkasiga 20 foiz imtiyoz qo'llanilgan.

Xorazm viloyati Yangiariq tumani Gulobod mahallasida joylashgan "Odas Enerji CA" MCHJga ajratilgan yer maydoniga 2026-yilda ijara stavkasi oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llamagan holda hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qaroriga asosan belgilangan yozgi ta'til davrida umumta'lim muassasalari binosi(ichkarisi)da joylashgan hamda balansda saqlovchi, ijaraga oluvchilarning xodimlari va ta'lim oluvchilar uchun xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish faoliyati uchun ijara haqi chegirib beriladi. Ijaraga oluvchining tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin.

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Ijara to'lovini (ijara to'lovining eng kam miqdori) hisoblash tartibi va qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_k + K_x + K_o)$$

bunda:

T_s - bir yilga 1 kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

E_s - 1-ilovaga muvofiq ijaraga olingan obyektning faoliyat turiga ko'ra bir yil uchun 1 kv.metr maydonning hisoblangan eng kam stavkasi.

Hududiy zonalar koeffitsiyenti (K_z):

T/r.	Viloyatning shahar va tumanlari nomlari	Hududiy zonalar koeffitsiyentlari	
		1-zona	2-zona
		Shahar, tuman markazlari	Markazdan chekka hududlar (MFYlar hududi)
1.	Urganch shahri	2,5	X
2.	Xiva shahri	2,5	X
3.	Bog'ot tumani	2,0	1,5
4.	Gurlan tumani	2,0	1,5
5.	Qo'shko'pir tumani	2,0	1,5
6.	Urganch tumani	2,0	1,5
7.	Hazorasp tumani	2,0	1,5
8.	Xonqa tumani	2,0	1,5
9.	Xiva tumani	2,0	1,5
10.	Shovot tumani	2,0	1,5
11.	Yangiariq tumani	2,0	1,5
12.	Yangibozor tumani	2,0	1,5
13.	Tuproqqal'a tumani	2,0	1,5

Binoning qurilishiga ko'ra qo'llaniladigan koeffitsiyent turi (K_k):

- alohida turgan bino - 2,0 koeffitsiyent;

- bino ichidagi xonasi - 1,8 koeffitsiyent;
- binoning tom qismi - 1,5 koeffitsiyent;
- yarim yerto‘la, yerto‘la - 1,0 koeffitsiyent;
- obyektga birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt, bruschatka) maydoni - 0,8 koeffitsiyent;

Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda - 1,0 koeffitsiyent.

Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko):

- ijaraga berilgan obyekt asosiy qatnov yo‘llari bo‘yida, serqatnov joylarda joylashgan bo‘lsa - 1,2 koeffitsiyent;
- ijaraga berilgan obyekt ikkinchi darajali qatnov yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘lsa - 1,0 koeffitsiyent;
- radio, uyali va peyjing aloqa antennalari o‘rnatilganda - 1,0 koeffitsiyent.

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Radio, uyali va peyjing aloqa antennalari (texnik uskunalar) o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi

1. Bino va inshootlarning tom qismi (shuningdek, davlat mulki bo‘lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o‘rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori.

E_s - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka.

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q - 1,5

K_h - 0

K_o - 1

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori.

E_s - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarining umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi)

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q - 0

K_h - 1

K_o - 1

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o‘rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori.

E_s - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka.

K_z - hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q - 1,8

K_h - 0

K_o - 1

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
4-ilova

Moddiy-madaniy meros obyektlari bo‘lgan bino va inshootlarda mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil qilishda ijara to‘lovi (ijara to‘lovining eng kam miqdori)ni hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar

Ijara to‘lovining eng kam miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kk + Kx + Ko)$$

bunda:

Ts - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

Es - 1-ilovaga muvofiq ijaraga olingan obyektning faoliyat turiga ko‘ra bir yil uchun 1 kv. metr maydonning hisoblangan eng kam stavkasi.

Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) 2-ilovada keltirilgan.

Binoning qurilishiga ko‘ra qo‘llaniladigan koeffitsiyent turi (Kk):

- alohida turgan bino - 1,5 koeffitsiyent;
- bino ichidagi alohida xona - 1,1 koeffitsiyent;
- binoning ustki qismi, cherdak, mansard - 0,8 koeffitsiyent;
- binoga taqab qurilgan bino hamda bostirma - 0,8 koeffitsiyent;
- yarim yerto‘la, yerto‘la - 0,7 koeffitsiyent;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan, bruschatka) inshootlar - 0,6 koeffitsiyent;

Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda - 0,5 koeffitsiyent.

Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko):

- ijaraga berilgan obyekt asosiy qatnov yo‘llari bo‘yida, serqatnov joylarda joylashgan bo‘lsa - 0,6 koeffitsiyent;
- ijaraga berilgan obyekt ikkinchi darajali qatnov yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘lsa - 0,5 koeffitsiyent.

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
5-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

Ts - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz - hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq - Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti;

Kh - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (Kq), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (Kq) – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yerto'lasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yerto'lasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) - ushbu koeffitsiyent davlat mulki obyektiga tutash hudud mavjud bo'lganda qo'llaniladigan koeffitsiyent hisoblanadi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko) - ushbu koeffitsiyent obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llariga tutash hududlarda joylashgan bo‘lsa, asosiy avtotransport yo‘lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko‘chalarida joylashgan bo‘lsa, ikkinchi darajali avtotransport yo‘lida joylashgan hisoblanadi.

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2026-yil 28-yanvardagi
VII-17-4-12-0-K/26 -son qaroriga
6-ilova

**Xorazm viloyati shahar (tuman)larining markaziy va serqatnov ko'chalarini
ro'yxati**

T/r.	Shahar va tumanlardagi ko'chalar nomlari
<i>Urganch shahri</i>	
1.	Urganch shahri Al-Xorazmiy ko'chasi
2.	Urganch shahri Xonqa ko'chasi
3.	Urganch shahri Islom Karimov shoh ko'chasi (Ulug'bek, Yangi Urganch, Al-Beruniy ko'chalari)
4.	Urganch shahri Abulg'oz Bahodirxon ko'chasi
5.	Urganch shahri Gurlan ko'chasi
6.	Urganch shahri Tinchlik ko'chasi
7.	Urganch shahri Yoshlik ko'chasi
8.	Urganch shahri Sanoatchilar ko'chasi
9.	Urganch shahri Yangiariq ko'chasi
10.	Urganch shahri Shovot ko'chasi
11.	Urganch shahri Jayhun ko'chasi
12.	Urganch shahri Pahlavon Mahmud ko'chasi
13.	Urganch shahri Amudaryo ko'chasi
14.	Urganch shahri Maxtumquli ko'chasi
15.	Urganch shahri Amir Temur ko'chasi
16.	Urganch shahri Baynalmilalchilar ko'chasi
17.	Urganch shahri Ma'rifatchilar ko'chasi
18.	Urganch shahri Navbahor ko'chasi
19.	Urganch shahri Navro'z ko'chasi
20.	Urganch shahri Sayot ko'chasi
21.	Urganch shahri G'ofur G'ulom ko'chasi
22.	Urganch shahri She'roziy ko'chasi
23.	Urganch shahri Najmiddin Kubro ko'chasi
24.	Urganch shahri Toshkent ko'chasi
25.	Urganch shahri Istiqlol ko'chasi
26.	Urganch shahri Xiva ko'chasi
<i>Xiva shahri</i>	
1.	Xiva shahri Amir Temur ko'chasi
2.	Xiva shahri Najmiddin Kubro ko'chasi
3.	Xiva shahri Elobod ko'chasi
4.	Xiva shahri Feruz ko'chasi
5.	Xiva shahri Mustaqillik ko'chasi
6.	Xiva shahri Sog'lom avlod ko'chasi
7.	Xiva shahri Koshona ko'chasi
8.	Xiva shahri "Ichon qal'a" hududidagi ko'chalar

9.	Xiva shahri Buyuk yo'l ko'chasi
<i>Bog'ot tumani</i>	
1.	Bog'ot shaharchasi O'zbekiston ko'chasi
2.	Bog'ot shaharchasi Feruz ko'chasi
3.	Bog'ot shaharchasi Navro'z ko'chasi
<i>Gurlan tumani</i>	
1.	Gurlan shaharchasi Mustaqillik ko'chasi
2.	Gurlan shaharchasi Pahlavon Mahmud ko'chasi
3.	Gurlan shaharchasi Bobur ko'chasi
4.	Gurlan shaharchasi Ziroatchilar ko'chasi
5.	Gurlan shaharchasi Mang'it ko'chasi
6.	Gurlan shaharchasi Qatortol ko'chasi
7.	Gurlan shaharchasi Muqimiy ko'chasi
8.	Gurlan shaharchasi Usmon Nosir ko'chasi
<i>Qo'shko'pir tumani</i>	
1.	Qo'shko'pir shaharchasi Mustaqillik ko'chasi
2.	Qo'shko'pir shaharchasi Beruniy ko'chasi
3.	Qo'shko'pir shaharchasi Az-Zamaxshariy ko'chasi
4.	Qo'shko'pir shaharchasi Sharof Rashidov ko'chasi
<i>Urganch tumani</i>	
1.	Urganch tumani Mustaqillik ko'chasi
2.	Urganch tumani Tinchlik ko'chasi
3.	Urganch tumani Muqimiy ko'chasi
4.	Urganch tumani Ibn Sino ko'chasi
5.	Urganch tumani Jayhun ko'chasi
6.	Urganch tumani Iftixor ko'chasi
<i>Hazorasp tumani</i>	
1.	Hazorasp shaharchasi G'ofur G'ulom ko'chasi
2.	Hazorasp shaharchasi Ravnaq ko'chasi
3.	Hazorasp shaharchasi Alisher Navoiy ko'chasi
<i>Tuproqqal'a tumani</i>	
1.	Pitnak shaharchasi Hazorasp ko'chasi
2.	Pitnak shaharchasi Xorazm ko'chasi
3.	Pitnak shaharchasi Ibn Sino ko'chasi
4.	Pitnak shaharchasi Komiljon Otaniyozov ko'chasi
<i>Xonqa tumani</i>	
1.	Xonqa shaharchasi Al-Xorazmiy ko'chasi
2.	Xonqa shaharchasi Xalqlar do'stligi ko'chasi
3.	Xonqa shaharchasi Nurli osmon ko'chasi
4.	Xonqa shaharchasi O'lmas meros ko'chasi
5.	Xonqa shaharchasi Oq saroy ko'chasi
6.	Xonqa shaharchasi Nafosat ko'chasi
7.	Xonqa shaharchasi Imorat ko'chasi
8.	Xonqa shaharchasi Andalib ko'chasi

<i>Shovot tumani</i>	
1.	Shovot shaharchasi Komiljon Otaniyozov ko'chasi
2.	Shovot shaharchasi Az-Zamaxshariy ko'chasi
3.	Shovot shaharchasi Turkiston ko'chasi
<i>Yangiariq tumani</i>	
1.	Yangiariq shaharchasi Mustaqillik ko'chasi
2.	Yangiariq shaharchasi Al-Xorazmiy ko'chasi
3.	Yangiariq shaharchasi Jaloliddin Manguberdi ko'chasi
4.	Yangiariq shaharchasi Urganch ko'chasi
5.	Yangiariq shaharchasi Kichik halqa yo'li
<i>Yangibozor tumani</i>	
1.	Yangibozor shaharchasi Urganch-Gurlan yo'li
2.	Yangibozor shaharchasi Jaloliddin Manguberdi ko'chasi
3.	Yangibozor shaharchasi Sohilbo'yi ko'chasi
4.	Yangibozor shaharchasi Navbahor ko'chasi
5.	Yangibozor shaharchasi Mash'al ko'chasi
6.	Yangibozor shaharchasi Fidokor ko'chasi
<i>Xiva tumani</i>	
1.	Xiva tumani markazi Urganch – Xiva yo'li
2.	Xiva tumani markazi Tinchlik ko'chasi
3.	Xiva tuman markazi Pillakor ko'chasi